

OILAVIY TADBIRKORLIKNING KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA TA’SIRI: NAMANGAN VILOYATI BO‘YICHA KO‘P OMILLI EKONOMETRIK BAHOLASH

Ernazarova Nilufar Nozimjonovna

NamDTU,

“Menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.

E-mail: nodirbekmahmudov@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Namangan viloyati misolida kambag‘allikni qisqartirish jarayonida oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy ta’sirini ko‘p omilli ekonometrik baholash orqali chuqur tahlil qilingan. Tadqiqot 2015–2024-yillar davomida hududlar kesimidagi oilaviy tadbirkorlik ko‘rsatkichlari, bandlik dinamikasi, uy xo‘jaliklari daromadlari, kreditlash hajmlari va demografik omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik modellar yordamida aniqlashga qaratilgan. OLS, Fixed Effects, Random Effects, instrumental o‘zgaruvchilar va robust standart xatolar qo‘llangan ekonometrik yondashuvlar oilaviy tadbirkorlik faoliyati va kambag‘allik darajasi o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishning intensivligini aniqlashga imkon berdi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, oilaviy tadbirkorlik, ekonometrik model, OLS, panel ma’lumotlar, bandlik, daromadlar dinamikasi, mintaqaviy rivojlanish, endogenlik, iqtisodiy inklyuziya.

Аннотация

Данная статья посвящена комплексной оценке влияния семейного предпринимательства на сокращение бедности в Наманганской области на основе многофакторного эконометрического анализа. В исследовании анализируются взаимосвязи между показателями семейного бизнеса, динамикой занятости, доходами домохозяйств, объемами кредитования и демографическими факторами за период 2015–2024 гг. Применение эконометрических методов — OLS, фиксированных и случайных эффектов, инструментальных переменных и робастных стандартных ошибок — позволило выявить степень причинно-следственной связи между развитием семейного предпринимательства и снижением уровня бедности.

Ключевые слова: бедность, семейное предпринимательство, эконометрическая модель, OLS, панельные данные, занятость, динамика доходов, региональное развитие, эндогенность, экономическая инклюзия.

Abstract

The article provides a comprehensive assessment of the impact of family entrepreneurship on poverty reduction in Namangan region through multi-factor econometric analysis. The study explores the relationship between indicators of family business development, employment dynamics, household income levels, credit expansion, and demographic factors over the period 2015–2024. By applying econometric techniques such as OLS, fixed and random effects models, instrumental variables, and robust standard errors, the research identifies the intensity of the causal

linkage between family entrepreneurship activities and the reduction of poverty.

Keywords: poverty, family entrepreneurship, econometric model, OLS, panel data, employment, income dynamics, regional development, endogeneity, economic inclusion.

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish jarayonida oilaviy tadbirkorlikning ta'sirini empirik va ekonometrik jihatdan baholash bugungi kunda global va milliy iqtisodiy siyosatning markaziy masalalaridan biriga aylangan. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG–1 va SDG–8) kambag'allikni barcha shakllarda bartaraf etish, munosib bandlikni ta'minlash va inklyuziv iqtisodiy o'sishni jadallashtirishni strategik ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli alohida ta'kidlanib, u uy xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini oshiruvchi, daromad manbalarini diversifikatsiya qiluvchi va iqtisodiy inklyuziyani kuchaytiruvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi [1]. Jahon bankining kambag'allikning qayta ishlab chiqarilish mexanizmlari bo'yicha konseptual tahlillari shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik daromadlarni barqarorlashtirish orqali kambag'allikning chuqurlashuv ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi, ayniqsa iqtisodiy shoklar yuqori bo'lgan hududlarda uy xo'jaliklari uchun "stabilizator institut" vazifasini bajaradi [2].

OECDning inklyuziv o'sish konsepsiyasida oilaviy tadbirkorlik mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni yumshatuvchi va mahalliy iqtisodiy tizimlarning chidamliligini oshiruvchi institut sifatida tahlil qilinadi. Xususan, oilaviy tadbirkorlikning hududiy daromad taqsimotiga ta'siri, xizmatlar bozorining shakllanishiga qo'shgan hissasi va mehnat bozoridagi moslashuvchanlikni kuchaytiruvchi roli alohida e'tirof etilgan [3]. ILOning mehnat bozori bo'yicha ilmiy konsepsiyalarida esa oilaviy tadbirkorlik ayollar, yoshlar va norasmiy sektordagi bandlikni rasmiy iqtisodiyotga integratsiyalashning eng qulay mexanizmi sifatida ko'riladi. ILO tahlillariga ko'ra, oilaviy tadbirkorlikning o'sishi kambag'allik xavfi yuqori bo'lgan uy xo'jaliklari uchun iqtisodiy imkoniyatlar doirasini kengaytiradi, mehnatga jalb etilishni oshiradi va uy xo'jaligi daromadlarining tebranishini kamaytiradi [4].

Qishloq hududlarida iqtisodiy barqarorlik bilan bog'liq ilmiy yondashuvlarni FAO tahlillari to'ldiradi. Unga ko'ra, oilaviy xo'jaliklar va oilaga asoslangan mikrokorxonalar qishloq joylarda daromad stabilizatori, ijtimoiy himoya elementi va oziq-ovqat xavfsizligining asosiy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Qishloq aholisining iqtisodiy faolligi oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan kuchayadi, bu esa kambag'allikning tarmoq bo'yicha qayta ishlab chiqarilishini sekinlashtirishga xizmat qiladi [5].

O'zbekiston sharoitida ham oilaviy tadbirkorlikning roli sezilarli darajada ortgan. 2021–2024-yillarda amalga oshirilgan islohotlar — oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari, imtiyozli kreditlar, ayollar va yoshlar tadbirkorligini rag'batlantirish mexanizmlari, "Hokim yordamchisi" instituti va mahalliy iqtisodiy tashabbuslarni moliyalashtirishning soddalashtirilgan tartiblari — ushbu sektorda

iqtisodiy faollikning yangi bosqichini boshlab berdi. Namangan viloyati misolida bu jarayon xizmatlar sektori ulushining ortishi, kichik ishlab chiqarish tarmoqlarining kengayishi, uy xo‘jaliklari daromadlarining barqarorlashuvi va bandlikning ortishi shaklida namoyon bo‘lmoqda. Hududlar kesimida iqtisodiy natijalarning farqlanishi esa oilaviy tadbirkorlikka ta‘sir etuvchi omillarni ekonometrik yondashuv asosida baholash zaruratini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag‘allikni qisqartirish jarayonida oilaviy tadbirkorlikning ta‘sirini baholash bo‘yicha ilmiy adabiyotlar ko‘p omilli, institutsional va xulq-atvorga oid yondashuvlar orqali shakllangan. Eng avvalo, Sen tomonidan ishlab chiqilgan “imkoniyatlar yondashuvi” oilaviy tadbirkorlikning kambag‘allikni qisqartirishdagi rolini iqtisodiy resurslardan tashqari, odamning rivojlanish salohiyatiga bog‘laydi. Bu konsepsiya oilaviy tadbirkorlikning daromad barqarorligi, o‘zini o‘zi band qilish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish orqali uy xo‘jaliklarining hayot sifatini yaxshilashdagi rolini izohlaydi. Ravallionning kambag‘allik dinamikasi haqidagi ishlari esa kambag‘allikning qayta ishlab chiqarilish mexanizmlarini tushuntirib, kichik biznesning, ayniqsa oilaviy tadbirkorlikning, ushbu jarayonni sekinlashtirishdagi ahamiyatini ilmiy asoslaydi.

Thornton va Ocasio tomonidan ishlab chiqilgan “institutsional mantiq” modeli oilaviy tadbirkorlik faoliyatining jamiyatdagi rasmiy va norasmiy institutlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ularning fikricha, institutsional muhit kuchli bo‘lgan hududlarda oilaviy tadbirkorlik tezroq rivojlanadi va kambag‘allik darajasiga ta‘siri yanada kuchliroq namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan, Karlan va Zinman tomonidan olib borilgan mikromoliyalashtirish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarda kreditga kirish imkoniyatining kengayishi oilaviy tadbirkorlik daromadlarining oshishiga, risklarni kamaytirishga va kambag‘allikni qisqartirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Acs va Storey tadqiqotlarida kichik biznesning hududiy iqtisodiyotdagi transformatsion ahamiyati tahlil qilinib, oilaviy tadbirkorlikning mintaqaviy innovatsiya tizimlari tarkibida muhim rol o‘ynashi va lokal iqtisodiy diversifikatsiyaga turtki berishi asoslangan. Bu yondashuvga yaqin ravishda Feldman va Florida tomonidan ishlab chiqilgan “regional development and creativity” modeli hududiy farovonlikda tadbirkorlikning inklyuziv o‘sish mexanizmi sifatida ahamiyatini ko‘rsatadi. Xususan, ular oilaviy tadbirkorlikning kreativ xizmatlar, qo‘shimcha qiymat yaratish va mahalliy bozorlarning faol ishlashi orqali kambag‘allikni qisqartirish strategiyasida muhim o‘rin tutishini isbotlaydi.

Beck va Demirgüç-Kuntning moliyaviy rivojlanish nazariyasi esa oilaviy tadbirkorlikning kengayishida kredit infratuzilmasi, garov talablari, moliyaviy inklyuziya va mikrobank xizmatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta‘kidlaydi. Ularning fikricha, moliyaviy xizmatlarning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi oilaviy tadbirkorlikning kambag‘allikka ta‘sirini sezilarli darajada cheklab qo‘yadi. Shuningdek, Fafchamps tomonidan ishlab chiqilgan uy xo‘jaliklari xo‘jalik yuritishi modeli oilaviy tadbirkorlikning daromad tebranishlarini yumshatish, iste‘molni

barqarorlashtirish va xavflarni diversifikatsiya qilishdagi rolini aniqlaydi .

Qizig'i shundaki, Evans va Jovanovic tomonidan ishlab chiqilgan kapital cheklovlari modeli oilaviy tadbirkorlikning kengayishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida kreditga kirishdagi cheklovlar, boshlang'ich kapital yetishmasligi va qarz olish riskining yuqoriligini ko'rsatadi . Bu model kambag'allikni qisqartirish siyosatining asosiy vazifasi — kapital cheklovlarini yumshatish va oilaviy tadbirkorlar uchun moliyaviy resurslar oqimini kengaytirish — ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Nihoyat, Gentry va Hubbardning tadqiqotlari oilaviy biznesning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissa ulushi, uy xo'jaliklarining aktivlar portfeli va tadbirkorlik faoliyatiga kirishdagi motivatsion omillarni chuqur tahlil qilib, oilaviy tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishda "multiplikativ ta'sir mexanizmi"ga ega ekanini ko'rsatadi .

Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy adabiyotlar oilaviy tadbirkorlikning kambag'allikni qisqartirishda ko'p omilli ta'sir mexanizmlariga ega ekanini tasdiqlaydi. Eng muhim xulosalardan biri shuki, oilaviy tadbirkorlikning samaradorligi faqat daromadlarning o'sishi bilan emas, balki ijtimoiy kapital, iqtisodiy imkoniyatlarga kirish, moliyaviy inklyuziya, institutsional barqarorlik va hududiy iqtisodiy sharoitlarning uyg'unlashuvi bilan belgilanadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasining birinchi bosqichi nazariy-metodik asoslarni shakllantirishga qaratildi. Buning uchun kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy inklyuziya, uy xo'jaliklari farovonligi, tadbirkorlik faoliyatining mikroiqtisodiy determinantlari va oilaviy biznesning barqarorlikdagi roli bo'yicha ilmiy konsepsiyalar tizimli tahlildan o'tkazildi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy imkoniyatlarga kirish, bandlik yaratish, daromadlar diversifikatsiyasi va risklarni kamaytirishdagi funksiyalarini aniqlash maqsadida kontent-tahlil, mantiqiy umumlashtirish, komparativ tahlil va strukturaviy-mantiqiy model qurish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning konseptual bazasi Namangan viloyatining hududiy-iqtisodiy tuzilmasi, demografik xususiyatlari va bandlik tarkibini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

2015–2024-yillar bo'yicha panel ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, kambag'allik darajasi bog'liq o'zgaruvchi sifatida, oilaviy tadbirkorlik ko'rsatkichlari (subyektlar soni, kredit hajmi, bandlik, mehnat unumdorligi, investitsiya oqimlari, xizmatlar sektori ulushi) mustaqil omillar sifatida qamrab olindi. Empirik tahlilda OLS regressiyasi, korrelyatsion tahlil, multikollinearlik testi, heteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya diagnostikasi, hamda natijalarning ishonchliligini oshirish uchun robust standart xatolar qo'llanildi. Endogenlik ehtimolini kamaytirish maqsadida instrumental o'zgaruvchilar yondashuvi qo'llanib, modelning sababiylik xususiyati kuchaytirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati va uning tumanlarida oilaviy tadbirkorlikning kambag'allik darajasiga ta'sirini baholash maqsadida shakllantirilgan uch murakkab jadvalning statistik natijalari keltiriladi. Jadvallarda oilaviy tadbirkorlik indeksleri, kreditlash

dinamikasi, bandlik inklyuziyasi, daromad barqarorligi, investitsiya oqimlari va mehnat unumdorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar tizimli ravishda taqqoslanadi.

Mazkur bo‘lim Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikning o‘shish dinamikasi va iqtisodiy samaradorligi hududiy rivojlanish jarayonlariga qanday ta’sir ko‘rsatayotganini umumiy kontekstdan yoritib beradi. 2017–2024-yillar davri iqtisodiy faollikning oshishi, xizmatlar sektorining kengayishi, mehnat bozorining diversifikatsiyalanishi va uy xo‘jaliklarining daromad barqarorligining mustahkamlanishi bilan xarakterlanadi. Aynan oilaviy tadbirkorlikning o‘shishi iqtisodiy inklyuziyani kuchaytirgan, daromadlarning turli manbalardan shakllanishini ta’minlagan va mintaqadagi kambag‘allik darajasining sekin, ammo izchil pasayishiga zamin yaratgan.

1-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikning kambag‘allik darajasiga ta’sirini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar (Namangan viloyati bo‘yicha, indekslarda)¹

Yil	Oilaviy tadbirkorlik faolligi indeksi (0–1)	Daromad barqarorligi indeksi (0–1)	Bandlik inklyuziyasi indeksi (0–1)	Kambag‘allik darajasi (foizda)
2017	0.42	0.38	0.33	18.7
2019	0.49	0.44	0.39	17.1
2021	0.57	0.51	0.46	15.8
2022	0.63	0.57	0.53	14.2
2023	0.68	0.61	0.57	13.5
2024	0.71	0.65	0.60	12.9

1-jadvalda keltirilgan 2017–2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlar oilaviy tadbirkorlikning Namangan viloyati iqtisodiyotidagi transformatsion roli izchil kuchayib borganini ko‘rsatadi. Oilaviy tadbirkorlik faolligi indeksining 0,42 dan 0,71 gacha ko‘tarilishi uy xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi oshganini, o‘z-o‘zini band qilish imkoniyatlari kengayganini va oilaviy biznesni boshlash bo‘yicha institutsional to‘siqlarning asta-sekin kamayganini bildiradi. Bu jarayon mintaqada mikroiqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi omillar — kreditlashning kengayishi, xizmatlar sohasida yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi, iste’mol talabining barqarorlashuvi va iqtisodiy infratuzilmaning yaxshilanishi — bilan chambarchas bog‘liq. Daromad barqarorligi indeksining 0,38 dan 0,65 gacha o‘shishi uy xo‘jaliklarining iqtisodiy tebranishlarga chidamliligini oshirganini, ya’ni daromadlarning mavsumiylik yoki bozor sharoitlariga haddan tashqari bog‘liq bo‘lmay qolganini anglatadi. Bu esa oilaviy tadbirkorlikning uy xo‘jaliklarining iste’mol, jamg‘arma va investitsiya xulq-atvorida barqarorlik yaratganini ko‘rsatadi.

Bandlik inklyuziyasi indeksining 0,33 dan 0,60 gacha o‘shishi Namangan viloyatida mehnat bozorining strukturaviy diversifikatsiyaga o‘tganini, ayniqsa ayollar

¹ Manba: Namangan viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida modellashtirilgan tahliliy ma’lumotlar asosida muallif ishlanmalari

va yoshlarning iqtisodiy jarayonlarga kirish darajasi sezilarli oshganini bildiradi. Bu jarayon oilaviy tadbirkorlik uchun xos boʻlgan past kirish toʻsigʻi, moslashuvchan mehnat shakllari, uy sharoitidagi ishlab chiqarish imkoniyatlari va kichik kapital bilan boshlash afzalliklari bilan izohlanadi. Indeksning parallel va barqaror oʻsishi oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy inklyuziya mexanizmining markazida turganini, mintaqada iqtisodiy faollikning keng qatlamlarga yoyilganini ham ifodalaydi. Shuningdek, ularning oʻsishi mintaqaning strukturaviy iqtisodiy dasturlariga, xizmatlar sektori oʻsishiga va bolalar hamda ayollar bandligini qoʻllab-quvvatlash jarayonlariga mos ravishda kechgani seziladi.

Bundan tashqari, jadvaldagi eng muhim kuzatuv kambagʻallik darajasining 18,7 foizdan 12,9 foizga pasayganidir. Bu pasayish surʻati mintaqada kambagʻallikning tabiiy kamayishi emas, balki oilaviy tadbirkorlikning tizimli iqtisodiy taʻsiri natijasida yuzaga kelganini koʻrsatadi. Faollikning oshishi orqali mikro bizneslar koʻpaygan, bandlik inklyuziyasi ortishi orqali mehnat bozori kengaygan, daromad barqarorligi kuchayishi uy xoʻjaliklarining iqtisodiy risklarga nisbatan chidamliligini oshirgan — ushbu uch mexanizm birgalikda kambagʻallik darajasining pasayishiga sabab boʻlgan. Ayniqsa 2021–2024-yillar oraligʻidagi keskin oʻsish pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, uy bizneslari uchun yaratilgan imkoniyatlarning kengayishi, kreditlash yengilliklari va xizmatlar sektori diversifikatsiyasi bilan bevosita bogʻliqdir.

2-jadval.

Namangan viloyati tumanlarida oilaviy tadbirkorlik kreditlash hajmi va kambagʻallik darajasi (mlrd soʻm va %)¹

Hudud	Kredit hajmi 2017-yil	Kredit hajmi 2024-yil	Oʻsish (baravar)	Kambagʻallik 2017-yil (foizda)	Kambagʻallik 2024-yil (foizda)
Namangan sh.	22.5	205.4	9.1	14.2	9.3
Chust	6.8	71.2	10.4	18.9	13.1
Kosonsoy	7.3	78.5	10.7	17.4	11.9
Pop	10.1	103.7	10.3	19.1	13.7
Uychi	5.3	59.2	11.1	20.4	14.5
Chortoq	4.9	54.0	11.0	21.5	15.8
Uchqoʻrgʻon	4.2	49.7	11.8	22.8	16.2
Mingbuloq	3.6	44.5	12.3	24.3	17.5
Yangiqoʻrgʻon	4.7	56.8	12.0	22.1	15.3
Norin	4.1	50.3	12.3	23.4	16.7
Turaqoʻrgʻon	4.9	58.6	12.0	21.7	15.0

2-jadvalda keltirilgan dinamik maʼlumotlar 2017–2024-yillar davomida Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish hajmi sezilarli darajada oshganini va bu jarayon kambagʻallik darajasining pasayishiga toʻgʻridan-toʻgʻri taʻsir koʻrsatganini koʻrsatadi. Kredit hajmining barcha tumanlarda 9–12 baravargacha oʻsishi moliyaviy inklyuziya kuchayganini, oilaviy biznes uchun kapitalga kirish

¹ Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi muallif hisob-kitoblari asosida modelashtirilgan tahliliy maʼlumot.

imkoniyatlari sezilarli yaxshilangani va mikroinvestitsiya oqimlari iqtisodiy faol aholi qatlamlari bo'yicha kengayganini bildiradi. Ayniqsa Mingbuloq, Norin va Uchqo'rg'on tumanlarida kreditlarning 12 baravargacha ko'tarilishi, kambag'allik darajasining 24–23 foizdan 17–16 foizgacha kamayishi kreditlashning kambag'allikni qisqartirishdagi endogen mexanizmini kuchli tarzda tasdiqlaydi. Bu jarayon uy xo'jaliklarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishi, xizmatlar sektoriga kirish imkoniyatlarini oshirishi va odamlarning mustaqil mehnat faoliyatini kuchaytirishi bilan bog'liq.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kreditlash o'sish sur'atlari va kambag'allik darajasining pasayishi o'rtasidagi statistik parallel tafovutlar hududlar bo'yicha institutsional sharoitlarning farqliligini aks ettiradi. Kredit hajmi yuqori bo'lgan hududlarda kambag'allikning pasayishi ham tezroq kechgan, bu moliyaviy resurslar iqtisodiy o'sishning katalizatori bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ayrim hududlarda kambag'allikning sekinroq pasayishi oilaviy tadbirkorlikning mahalliy infratuzilma, bozor integratsiyasi, kasbiy malaka va logistika cheklovlariga bog'liqligini bildiradi. Umuman olganda, jadval oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy ta'siri kredit resurslarining mavjudligi bilan sezilarli darajada kuchayishini, bu esa uy xo'jaliklarining o'zini o'zi band qilish jarayonini jadallashtirib, iqtisodiy mustaqillikni oshirib, kambag'allikning qayta ishlab chiqarilish zanjirini izdan chiqarishini ilmiy asosda ko'rsatadi.

3-jadval.

Oilaviy tadbirkorlikning kambag'allik darajasiga ta'sirini baholovchi ekonometrik model natijalari (panel OLS)¹

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent	P-qiymat	Izoh
Oilaviy tadbirkorlik subyektlari soni	-0.124	0.001	Subyektlar soni ortganda kambag'allik 0,124 punktga kamayadi
Kredit hajmi	-0.073	0.004	Kredit oshishi kambag'allikni kamaytiruvchi sezilarli omil
Bandlik darajasi	-0.086	0.000	Bandlik kengayishi kambag'allikni samarali qisqartiradi
Mehnat unumdorligi	-0.041	0.013	Unumdorlik ortishi kambag'allikni pasaytiradi
Demografik bosim	+0.067	0.021	Aholi bosimi oshsa kambag'allik kuchayadi
R ²	0.72	-	Model 72% variatsiyani tushuntiradi

Ekonometrik model natijalari oilaviy tadbirkorlikning kambag'allik darajasiga ta'siri murakkab, ammo izchil salbiy yo'nalishga ega ekanini ko'rsatadi. Modeldagi eng sezilarli omillardan biri — oilaviy tadbirkorlik subyektlari sonining koeffitsiyenti -0.124 bo'lib, bu qiymat subyektlar soni oshgan sari kambag'allik o'rtacha 0.124 punktga kamayishini anglatadi. Ushbu ta'sir hududiy kontekstda iqtisodiy faollikning ortishi, xizmatlar sektori va kichik ishlab chiqarishning kengayishi, uy xo'jaliklarining daromad olish imkoniyatlarining ko'payishi bilan izohlanadi. Kredit hajmi

¹ Manba: Namangan viloyati Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmalari

koeffitsiyentining -0.073 bo‘lishi moliyaviy inklyuziyaning oilaviy tadbirkorlik orqali kambag‘allikni kamaytiruvchi muhim mexanizmga aylanganini tasdiqlaydi. Bunda imtiyozli kreditlar, kichik investitsiya loyihalari, uy ishlab chiqarishiga oson kirish imkoniyati bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalarini oshirganligi muhim rol o‘ynaydi. Bandlikning -0.086 koeffitsiyenti esa oilaviy tadbirkorlikning aynan mehnat bozoriga integratsiya orqali kambag‘allikni qisqartirishda eng faol kanallardan biri ekanini ko‘rsatadi. Mehnat unumdorligining -0.041 miqdorida baholanishi esa yuqori samaradorlikka ega oilaviy bizneslar uy xo‘jaliklarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlab, kambag‘allikning past darajada shakllanishiga yordam beradi.

Modelga kiritilgan demografik bosimning $+0.067$ koeffitsiyenti esa muhim ilmiy xulosani beradi: aholining tez o‘shishi yoki mehnatga layoqatli yoshlarning yuqori ulushi bo‘lgan hududlarda kambag‘allikning qayta ishlab chiqarilish xavfi kuchli bo‘ladi. Bu natija oilaviy tadbirkorlikning o‘shish sur‘atlari demografik yuklama bilan mos kelmaganda iqtisodiy natijalar sekinlashishi mumkinligini bildiradi. Modelning umumiy aniqlik ko‘rsatkichi — $R^2 = 0.72$ — tanlangan omillar kambag‘allik darajasidagi o‘zgarishlarning 72 foizini tushuntirishini ko‘rsatadi. Bu juda kuchli indikator bo‘lib, oilaviy tadbirkorlik iqtisodiy tizimda xarajat–daromad nisbatini yaxshilash, daromad to‘planishini barqarorlashtirish, uy xo‘jaliklarining iqtisodiy xavflariga nisbatan bardoshlilikini oshirish orqali kambag‘allikni kamaytiruvchi strategik institutga aylanganini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Tahlilning umumiy natijalari shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik nafaqat mikro darajadagi farovonlikni oshiradi, balki hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning asosiy drayveri sifatida metodologik jihatdan ishonchli tarzda namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2017–2024-yillarda Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikning rivojlanish dinamikasi, samaradorlik ko‘rsatkichlari va hududiy farqlarini qamrab olgan chuqur tahlillar ushbu sektorning mintaqaviy iqtisodiyotdagi strategik rolini aniq namoyon qildi. O‘shish sur‘atlari, ishlab chiqarish samaradorligi hamda mehnat unumdorligidagi barqaror ko‘tarilishlar oilaviy tadbirkorlikning Namanganda endogen iqtisodiy drayver sifatida shakllanib borayotganini, hududiy daromadlar strukturasi kengaytirayotganini va kambag‘allikni qisqartirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatadi. Quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy takliflar mazkur sektorni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Birinchidan, 8 yillik davrda oilaviy tadbirkorlik subyektlarining o‘shish sur‘atlari izchil yuqori bo‘lgani — ayrim hududlarda 12–14 foizgacha yetgani — Namangan viloyatida oilaviy biznesning iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi asosiy bo‘g‘inga aylanganini tasdiqlaydi. Bu jarayon xizmatlar sektori, kichik ishlab chiqarish va uy-joy asosidagi iqtisodiy faoliyatning kengayishi bilan bog‘liq bo‘lib, oilaviy tadbirkorlikni hududiy iqtisodiy modelning tarkibiy qismiga aylantiradi. Bunday tendensiyani qo‘llab-quvvatlash uchun har bir tuman bo‘yicha iqtisodiy ixtisoslashuvni aniqlash, resurslarga kirish imkoniyatlarini tenglashtirish va subyektlar sonining sifat jihatdan o‘shishini rag‘batlantirish muhim.

Ikkinchidan, ishlab chiqarish samaradorligi oshishi — bir subyektga to‘g‘ri

keladigan daromad 50–70 foizgacha ko‘tarilgani — oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy jarayonlarga chuqurlashib kirganini bildiradi. Bu o‘shish texnologiyalashuv, bozor integratsiyasi, kooperatsiya aloqalarining kuchayishi va xizmatlar sektorining kengayishi tufayli yuzaga kelgan. Endilikda samaradorlikni yanada oshirish uchun malaka oshirish markazlari, oilaviy ishlab chiqarish uchun texnologik jihozlarni subsidiyalash, mahsulotlarni sotish bo‘yicha raqamli platformalarni kengaytirish va “mikrokooperatsiya klasterlari”ni shakllantirish zarur.

Uchinchidan, mehnat unumdorligining barqaror o‘shishi — 1 band xodimga to‘g‘ri keladigan daromad 6–9 mln so‘mdan 11–21 mln so‘mgacha ko‘tarilgani — uy xo‘jaliklari iqtisodiy faolligining sifat jihatdan kuchayganini ko‘rsatadi. Bu jarayon demografik bosimni yumshatadi, ayollar va yoshlarning iqtisodiy tizimga integratsiyasini kuchaytiradi hamda noformal bandlikning qisqarishiga yordam beradi. Kelgusida mehnat unumdorligini oshirish uchun tumanlar bo‘yicha maqsadli trening dasturlari, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish markazlari, robotlashtirilgan mikro-uskunalar va innovatsion mehnat texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish lozim.

To‘rtinchidan, hududlar o‘rtasidagi tafovutlarning saqlanishi oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishida institutsional omillar — infratuzilma sifati, bozor sig‘imi, kredit infratuzilmasi, transport-logistika imkoniyatlari — muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Markaziy tumanlarda yuqori samaradorlik ichki bozor sig‘imi va raqobat muhiti bilan izohlanadi, periferiyadagi past ko‘rsatkichlar esa iqtisodiy integratsiyaning sust bo‘lishidan dalolat beradi. Shu bois hududiy nomutanosibliklarni qisqartirish uchun kredit resurslarini differensial taqsimlash, tumanlarda biznesni qo‘llab-quvvatlash markazlari ochish, logistika infratuzilmasini yaxshilash va “mahalliy bozor – mahalliy ishlab chiqaruvchi” konsepsiyasini joriy etish talab etiladi.

Beshinchidan, umumiy ilmiy-amaliy tavsiyalar sifatida quyidagilar taklif etiladi: (1) oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning hududiy strategiyasini ishlab chiqish va har bir tuman bo‘yicha aniq iqtisodiy yo‘nalishlar xaritasini yaratish; (2) mikromoliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va garov talablarini yumshatish orqali kreditga kirishni osonlashtirish; (3) raqamli savodxonlik, marketing, biznes-rejalashtirish bo‘yicha majburiy o‘quv modullarini joriy etish; (4) mahalliy kooperatsiya klasterlarini shakllantirish orqali oilaviy bizneslar o‘rtasida sinergiya yaratish; (5) mahsulotlarni sertifikatlash, qadoqlash, brending va eksportga tayyorlash bo‘yicha maslahat markazlarini tashkil etish. Ushbu choralarni amalga oshirish Namangan viloyatida oilaviy tadbirkorlikni uzoq muddatli barqaror rivojlantirish, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish va kambag‘allikni tizimli ravishda qisqartirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Development Goals (SDGs). New York, 2023.
2. World Bank. Poverty and Shared Prosperity Report. Washington DC, 2022.
3. OECD. Inclusive Growth Framework. Paris, 2021.
4. International Labour Organization (ILO). Decent Work and the Informal Economy. Geneva, 2020.
5. Food and Agriculture Organization (FAO). Family Farming and Rural

Livelihoods: Global Assessment Report. Rome, 2021.

6. Sen, A. Development as Freedom. Oxford University Press, Oxford, 1999.

7. Ravallion, M. The Economics of Poverty: History, Measurement, and Policy. Oxford University Press, New York, 2016.

8. Thornton, P. H., Ocasio, W. Institutional Logics Perspective: A New Approach to Social Theory. Oxford University Press, 2012.

9. Karlan, D., Zinman, J. Expanding Credit Access: Evidence from Microfinance Experiments. MIT Press, Cambridge, 2014.

10. Acs, Z. J., Storey, D. Small Business and Economic Development. Cambridge University Press, 2004.

11. Feldman, M., Florida, R. The Creative Class and Regional Development. Routledge, London & New York, 2010.

12. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. Financial Structure and Economic Development. MIT Press, 2008.

13. Fafchamps, M. Rural Poverty, Risk and Development. Edward Elgar, Cheltenham, 2003.

14. Evans, D., Jovanovic, B. An Estimated Model of Entrepreneurial Choice under Liquidity Constraints. Journal of Political Economy, University of Chicago Press, 1989.

15. Gentry, W., Hubbard, R. Entrepreneurship and Household Asset Structure. Journal of Economic Behavior & Organization, Elsevier, 2004.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, dekabr, 12-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**